

TARJAMADA LEKSIK SINONIMLARNING O'ZIGA XOS KATEGORIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qisman leksik muvofiqlik, tarjima amaliyotida leksik birliklarning qisman mosligi ko'p kuzatilishi, qisman moslik manba matndagi so'zning tarjima tilida bir qancha muvofiqliklari mavjud bo'lganda ro'y berishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Leksik muvofiqlik, manba, atoqli ot, geografik joy nomlari, ilmiy va texnik atamalar, xos so'zlar tarjimasi

Nemis va o'zbek tillarida kamdan-kam uchraydigan holat. Odatda, ular quyidagi leksik guruhlariga tegishli bo'ladi:

- 1) atoqli ot va geografik joy nomlari;
- 2) ilmiy va texnik atamalar;
- 3) oy, hafta, kun va sonlar.

Qisman leksik muvofiqlik. Tarjima amaliyotida leksik birliklarning qisman mosligi ko'p kuzatiladi. Qisman moslik manba matndagi so'zning tarjima tilida bir qancha muvofiqliklari mavjud bo'lganda ro'y beradi. Uning sabablari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi: 1) tildagi ko'plab so'zlar polisemantik (ya'ni ko'p ma'noli) bo'lib, bir tildagi so'z ma'nosi bilan boshqa tildagi so'z ma'nosi bir-biriga to'lig'icha mos kelmaydi. Masalan: das Haus (uy, boshpana¹, parlament va h. k), der Kopf(bosh, kalla, rahbar, boshliq va h. k). Shuning uchun so'zlarni tarjima qilish jarayonida ularning ma'nolari kontekst ichida ham atroflicha ochib beriladi; 2) so'zlarning sinonimik qator bo'yicha tanlanishi va izohlanishi. Sinonimlardan foydalanganda ularning semantik belgilari mohiyatini aniqlash zarur. Shunday qilinganda sinonimik qator uzvlarining ma'nolari, leksik va stilistik ma'nolaridagi farqlar, sinonimik qatorlar ayrim komponentlarining birikish imkoniyatlari hisobga olinadi: entlassen – ishdan bo'shatmoq (kitobiy tilda); Antrieb– haydamoq (og'zaki nutqda); 3) har bir so'z o'zining nominativ ma'nosiga ega. Turli tillarda nominativ birliklar bir xil ma'no anglatishi mumkin. Chunki har bir tilning nominativ birligida shu tilga xos «voqelikni turli qismlarga bo'lib ifodalashning turli tamoyillari» mavjud. Belgilar turlicha bo'lishiga qaramay, tarjima qilinayotganda hisobga olinishi kerak bo'lgan miqdorni tashkil qiladigan ekvivalentlik aynan bir xil ma'noga ega emas: "Heiße Milch mit haut darauf" – qaymoq tutgan issiq sut.

Umuman mos kelmaslik. Xos so'zlarni tarjima qilishda lug'aviy birliklarning o'zaro leksik muvofiq kelmasligi kuzatiladi. Quyidagi guruhga kiruvchi so'zlarni leksik muqobili mavjud bo'lmagan turga kiritish mumkin: 1) kundalik hayotda ishlatiladigan xos so'zlar (do'ppi, chopon, beshik); 2) atoqli otlar va geografik joy

¹ (<https://fayllar.org/ekologiya-yunoncha-oikos-uy-boshpana-logos-fan-talim-berish-at.html>)

nomlari; 3) tabrik va qutlovlar; 4) gazeta va jurnallar nomlari; 5) og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari va sh. k. Ilmiy adabiyotlarda bir millatga xos narsa, buyum, voqea-hodisalarning yoki, umuman, xorijiy so'zlarning o'zga tillarga ko'chib yurishi birgina adabiy aloqalarning, xususan, tarjimaning rivojlanishiga bog'liq emas. Bu xalqaro aloqalarning, siyosiy-tarixiy² madaniy voqea-hodisalarning o'zga xalqlar dunyoqarashiga ta'siri bilan ham bog'liq. Aynan shu tufayli, masalan, rus tili orqali o'zbek tiliga siyosat, din, iqtisod va ilm-fanga oid ko'plab xorijiy so'zlar singib ketgan. Bu o'rinda xorijiy adabiyotlar tarjimasi orqali o'zbek kitobxonlariga, ko'pincha, tushunarli bo'lmagan ko'plab tushunchalarni ifodalovchi xos so'zlar kirib kelayotganini ham alohida ta'kidlash joiz.

Xos so'zlar tarjimasida, odatda, ikki xil qiyinchilikka duch kelinadi: 1) asliyat tiliga xos so'zlarga mos ekvivalentning mavjud emasligi; 2) asliyat tilidagi xos so'zlar, mazkur xalqqa doir milliy³, tarixiy koloritni tarjima qilinayotgan tilda to'laligicha ifodalashning murakkabligi.

Shu nuqtai nazardan, xos so'zlar tarjimasida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadiki: 1) baynalminal xarakterdagi xos so'zlar. Tarjimada ular o'z shaklida birlashishi mumkin; 2) faqat ma'lum bir hudud yoki millatga xos voqea-hodisalar. Ular shu millat turmush tarziga xos tushunchalarnigina ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ismanova O.U. XORIJIY TILLARNI OQITISHDA HAR BIR OQUVCHI BILAN INDIVIDUAL SHUGULLANISH VA KOPRIK TIL MOHIYATI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO ILMIY TATQIQOTLAR JURNALI 2022.**
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAA AJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:9yKSN-GCB0IC
2. **Ismanova O.U. TURLI TIZIMLI TILLARDA TARJIMON MAHORATI. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2023**
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAA AJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
3. **O. ISMANOVA. NEMIS VA OZBEK TILLAR KESIMIDA TARJIMONNING TARJIMADA LEKSIK SINONIMLARDAN TANLAB FOYDALANISH USLUBLARI** Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2023 21ноя
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAA AJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:2osOgNQ5qMEC
4. **Odinaxon Ismanova. NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI.** Центральноеазиатский журнал образования и инноваций 2023 2 ноя (93-97)
https://scholar.google.ru/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Ismanova+Odinaxon&oq=

² (<https://fayllar.org/tarixiy-geografiya-fanidan-test-savollari.html>),

³ (<https://fayllar.org/etnopsixologiya.html>)